

”TOSHLARNI YIG’LATGAN DOSTON”

Shukurullayeva Feruza Inom qizi

Jizzax viloyati Zomin tumani 75-maktab

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, oliy toifali

shukurullayevaferuza295@gmail.com

+998995755046

Annotasiya: *O‘zbek adabiyotining tanti va samimiy shoiri Muhammad Yusuf she‘rni odamlarning ko‘ngil ko‘zi bilan qog‘ozga yoza olgan vatanparvar shoirdir. Hech bir o‘zbek xonadoni yo‘q -ki, javonidan she‘rlari o‘rin olmagan. Hech bir o‘zbek farzandi yo‘q -ki, uning she‘riyat bulog‘idan suv ichmagan. Mazkur maqolada shoirning "Qora quyosh" dostoni va uning mazmuni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *doston, she‘riyat, misra, ma‘no, shoir, "Qora quyosh", vatanparvarlik, odamiylik, jadid, jadidchilik, xalqonalik, dard, xalqparvar, razillik.*

Bilamizki, O‘zbek xalqining “Sodda Muhammad”i deb tanilgan shoir Muhammad Yusuf she‘rlari yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan barchaning ko‘nglidan joy olgan. Chinakam betakror ijodiy merosni biz avlodlarga qoldirgani sir emas. Bu nodir iste’dod egasini ko‘p kitobsevarlar she‘rlari bilan tanishadi. Keling, endi shoirning doston janrida ham mohirona va keng ko‘lamli qalam tebratganini ko‘rib chiqamiz. Shoir “Osmonning oxiri”, “Qora quyosh”, “Ko‘hna dunyo” kabi o‘lmas asarlar muallifi hamdir.

“Qora quyosh”! Nomidan ham kishini o‘yga soladigan, fikrlashga undaydigan doston. Haqiqatdan, adabiyot gulshanining noyob durdonasi. Asar “Razil hayot”ga porloq umid bilan boqqan akaning singlisi Qumriga yozgan xati bilan boshlanadi. Aka "Razil hayotga ko‘nikib qolganimda shirin turmushni eslatmasang edi...", "... achchiq turmushning alamli azoblarini yozib siz mehribonlarim ko‘nglini og‘ritib qo‘yishdan cho‘chib xat yozishdan kechdim..." deya maktub bitar ekan, ichki kechinmalarini oshkor qilishdan or qilgan mardona o‘zbek yigiti sifatida gavdalanadi. Asar davomida Usmon Nosir xati, Marshal Jukov xotiralaridan parchalar keltiriladi. Xatlar orqali shoir o‘quvchi ko‘z oldida tarixni gavdalandirishga urunadi.

"Odamlar taqdiri oddiy tushlik yoki kechki ovqat paytidayoq hal bo‘lardi. Suhbat orasida kimlarningdir nomlari tilga olinardi...U nomlarini aytgan odamlarni aytgan odamlar shu kechasiyoq qamoqqa tushardi..."

Muhammad Yusuf dostonida “Umr”, “Sevgi”, “Omad”, “Orzu”, “Yolg‘on”, “Armon” kabi tushunchalarga hali hech qayerda uchramagan o‘xshatishlarini ko‘rish mumkin. “Umr-yo‘l”, “Armon-ehtiyoj”, “Yolg‘on- o‘t o‘smas dala”, “Omad-ayvondagi qaldirg‘och” kabi metaforalarni uchratamiz. Ayniqsa uning " Baxt- bir kosa atala " tashbehi bugungi to‘qlikka sho‘xlik qilayotgan zamonamiz yoshlari uchun shukronalik bilan yashashni o‘rgatadi. O‘zbek xalqining ozrulari ham, armonlari ham o‘zidek sodda va jo‘n ekanligini yuqoridagi tashbehtar isbotlaydi.

Soqovni otishdi,

Anqovligi uchun.

To'g'rirog'i tug'ma

Soqovligi uchun.

Qirq yil bo'ldi bunga,

Ellik yil bo'ldi-yov.

Mana endi,

Soqovning onasi-

Haqiqiy soqov.

Xalqimizning mustamlakachilik siyosati ostida ezilgani, aybsiz aybdorlarcha yashagani, dostonida aytilganidek "haqiqiy soqov"larning yuraklari razillikdan ado bo'lganini ko'rish mumkin. Sibirga surgun qilingan ko'plab vatandoshlarimiz -otabobolarimiz nima uchun surgun qilinganini bilmay o'tganlar. Muhammad Yusuf buni Mazkazqo'mning sobiq kotibi Sulaymon Azimovning xotiralaridan parcha keltirib asoslaydi:

" - Sizni nega qamadilar, birodar?

- Sulaymon Azimovning"dumi"san, deb!

- Kimning-kimning?... Uni taniysizmi?

- Yo'q, ko'rmaganman...

- Unda keling, tanishvolaylik. Menman o'sha siz aytgan odam!.."

"Qora quyosh "dostonida vatan ozodligi, obodligi va rivoji yo'lida umrini, jonini qurbon qilgan bobolarimiz yodi barchamiz uchun zaruriy dasturulamal bo'lib kelgan, bo'ladi ham. Ulardan o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina. Necha yillar oldin yozilgan bo'lsa-da, ular targ'ib etgan masalalar, targ'ibotlar bugun ham o'z qadr-qimmatini zarracha yo'qotmagan. Shu sababdan shoir jadidchi bobolarimizni yanada tanitish uchun ularni yodga oladi.

O'lgan o'ldi-ketdi.

Endi qaytmaydi.

Nega?

Nima uchun?

Bu ham bir jumboq.

Ota xatosini o'g'il aytmaydi,

Aytolmas,

Unutib ham bo'lmaydi biroq...

Noyob iste'dod egalarni asossiz, aybladilar. Ilmga, ma'rifatga targ'ib etilgan asarlarini ko'rib cho'chidilar. Nihoyat o'sha razil kimsalar maqsadlariga yetdilar. Surgun qildi, qamadi, hayotiga yakun yasadi.

Bedarak yo'qoldi qancha odam, essiz,

So'roqlarda o'ldi qancha odam, essiz ,

Qiynoqlarda o'ldi qancha odam, essiz,

Sirtmoqlarda qoldi qancha odam, essiz.

Bu xalqimiz uchun juda katta judolik edi. Dostonida shoir buni qayg'uga yo'g'rilgan satrlar bilan ifodalaydi:

Yotar alpqomatli bahodirlar qator,
Akmallar,
Qodirlar,
Shokirlar yotar.
Yotar Fayzullolar,
Yotar Ahmadlar,
Xudo rahmat qilgur, xuod rahmatlar...

Xulosa: Yurboshimizning " Buyuk ajdodlarimizning muqaddas xotirasi va jasoratlari oldida bosh egamiz. O'z tarixini bilgan yutadi" degan qarashlariga tayansak, shoir Muhammad Yusuf haqiqatdan kelajak avlod uchun jon koyitadi, qayg'uradi, tashvishlanadi. Jadid bobolarimizning ilmiy-ma'rifiy , adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, xalqimizni mamlakat ravnaqi yo'lida birlashtirish, qalblarni uyg'otish, bobolarimiz ibratli hayoti, faoliyati va ma'naviy merosi kelajak bunyodkorlari uchun dasturilamal bo'lsin. So'zimni shoir tabiri bilan yakunlayman:

Ularning sanog'i yulduzdan ham ko'p,
Yurtim, dilbandingdir har giyoh, har cho'p.
Fidolaring bo'lgan farzandlaringdir,
Nomdoru nomsizin xoki poyin o'p!..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Qora quyosh" dostoni. "O'zbekiston" 1988.
2. "Xalq bo'l elim" "O'zbekiston". Toshkent -2008
3. "Jadidlar". YOSHLAR NASHRIYOT UYI. Toshkent -2022